

# KOREYS ADABIY TILINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

**Toshturdiyeva Shoxista Habibillo qizi**

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrasida o'qituvchisi,

Toshkent, O'zbekiston

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqot ishida koreys adabiy tilining rivojlanishi bosqichlarga ajratilib ko'rib chiqiladi. Shuningdek, har bir davrda adabiy til qanday usullar bilan standartlashib borganligi bosqichma-bosqich ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** 표준어, 훈민정음, ilk davr, yapon mustamlakasi davri, mustaqillikdan keyingi davr, zamonaviy davr.

## STAGES OF DEVELOPMENT OF THE KOREAN LITERARY LANGUAGE

Toshturdiyeva Shokhista Habibillo qizi

Uzbekistan State World Languages University

Lecturer at the Department of Korean Philology

Tashkent, Uzbekistan

**Annotation:** This research study examines the development of the Korean literary (standard) language by dividing it into historical stages. It also describes, step by step, how the literary language was standardized during each period.

**Keywords:** standard language (표준어), 훈민정음, early period, Japanese colonial period, post-liberation period, modern period.

## ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ КОРЕЙСКОГО ЛИТЕРАТУРНОГО ЯЗЫКА

Тоштурдиева Шохиста Хабибилло кизи  
Узбекский государственный университет мировых языков  
Преподаватель кафедры корейской филологии  
Ташкент, Узбекистан

**Аннотация:** В данном исследовании развитие корейского литературного языка рассматривается по историческим этапам. Кроме того, поэтапно показано, какими способами литературный язык стандартизировался в каждый период.

**Ключевые слова:** стандартный язык (표준어), 훈민정음, ранний период, период японской колонизации, послевоенный период, современный период.

Dastlab biz koreys tilidagi “표준어” so‘zining asl nima ma’no anglatishini ko‘rib chiqamiz.

표준어. Texnologik jihatdan rivojlangan ilg‘or davlatlarning aksariyatida standart til (표준어) belgilab qo‘yilgan va keng qo‘llaniladi. Koreya mamlakatida ham 1936-yilda standart tilni belgilash bo‘yicha ishlar boshlanganidan beri, hozirgi kungacha ushbu tildan foydalanishni kengaytirishga doimiy ravishda e’tibor qaratilmoqda<sup>1</sup>. Koreys tili katta lug‘atida bu atamaga quyidagicha ta’rif beradi. “Mamlakatda rasmiy til sifatida ishlatiladi. Til me’yor sifatida muloqotdagi noqulaylikni kamaytirish uchun barcha fuqarolar foydalanishi odatiy holdir. Bu so‘z rasmiy til maqomiga ega bo‘lib, Seul shevasi asosida qurilgan<sup>2</sup>”. Shu bilan birga “표준국어대사전(Standart koreys tili lug‘ati)”da “표준어” ya’ni adabiy standart til ikki ma’noga ega deb talqin qilinadi. 1. “Bir mamlakatda rasmiy til sifatida ishlatiladigan me’yorlashtirilgan til”, 2. “Barcha fuqarolar umumiy foydalana oladigan so‘z”. Birinchisi “qonun-qoidaga asoslangan til” degan

<sup>1</sup> 이익섭, 표준어의 기능. 2011

<sup>2</sup> 이희승, 『국어대사전』(서울: 민중서림, 2011).

ma'noda, imlo va yozuv qoidalari kabi til normalari bilan bog'liq deb qaraladi, ikkinchisi esa adabiy til lug'aviy qatlamida tushunilgan ma'noda ko'riladi<sup>3</sup>.

**표준어를 발전사 (Standart koreys tilining rivojlanish tarixi):** Koreys tilining standartlashuvi uzoq tarixiy jarayon bo'lib, bir necha bosqichlarni o'z ichiga oladi. Quyida ushbu rivojlanish bosqichlari haqida batafsil ma'lumot beriladi.

**1. Ilk bosqich: Hunminjeongeumning yaratilishi (15-asr).** 1443-yilda Choson sulolasining to'qqizinchi qiroli Sejong Daejang (Sejong Buyuk) tomonidan yangi yozuv tizimi — Hunminjeongeum (훈민정음 hozirgi Hangil) yaratildi. Bu yozuv tizimi koreys xalqining o'z ona tilini ifoda etish va o'qish-yozishni osonlashtirish maqsadida ishlab chiqilgan. Hunminjeongeumning yaratilishi koreys tilining standartlashuvi yo'lida muhim qadam bo'ldi<sup>4</sup>. Buning yaratilgandan keyin, koreys tilida talaffuzni yozuvda aks ettiradigan fonetik imlo (tovushga asoslangan yozuv) asosan qo'llanib kelingan. Biroq islohotlar davrigacha yozuvga oid aniq me'yorlar mavjud bo'lmagani sababli, bir xil fe'l shakli bir xil matn ichida ham birikma yozuv (연철), ajratma yozuv (분철) yoki o'rta yozuv (중철) kabi turlicha ifodalangan.

**2. Yapon mustamlakasi davri (1910-1945).** 1910-yilda Koreya Yaponiyaning mustamlakasi bo'lgan davrda, Koreys tilini saqlab qolish va me'yorlashtirish harakatlari kuchaygan<sup>5</sup>. Bu davrda yapon tili rasmiy til sifatida joriy etilib, koreys tilining qo'llanilishi cheklab qo'yildi. Shunga qaramay, koreys ziyolilari va tilshunoslari tilni saqlab qolish va standartlashtirish uchun harakat qilishdi<sup>6</sup>. 20-asr boshlarida Chu Shigyeong va boshqa tilshunolar tomonidan hangilni tizimli ravishda tartibga solish harakatlari boshlandi. 1907-yilda Xalq maorif boshqarmasi tomonidan "Koreys yozuvi tadqiqoti bo'yicha kelishuv (국문연구의정안)", 1912-yilda Bosh ma'muriyat tomonidan "Oddiy maktablar uchun yozuv imlo qoidalari (보통 학교용 언문철자법)", 1930-yilda esa "Yozuv imlosi (

<sup>3</sup> 장린, 이강혁. 한국어 표준어에 대한 재고. 중한연구학회. 2024. 144 쪽.

<sup>4</sup> <https://www.koreanculture.org/gallery-korea/2024/04/07/hangeul?>

<sup>5</sup> 안부영. (2022). 표준어와 방언 관련 교육내용 개선 방향 연구. 한국초등국어교육,(75), 263-289.

<sup>6</sup> V.S. Xan, Koreya tarixi, Toshkent. 2013. 104 b.

언문철자법” e’lon qilindi. Nihoyat, 1931-yilda 조선어연구회 (Choson Eo Yeonguhoe — Koreys Tili Tadqiqot Jamiyati) tashkil etilib, 1933-yilda “한글 맞춤법 통일안” (Hangul imlo qoidalarining birlashgan loyihasi)ni e’lon qildi<sup>7</sup>. Bu hujjatda ajratma yozuv (띄어쓰기) va bo‘linma yozuv (분철 표기) kabi qoidalar belgilandi. Ushbu me’yorlar 1987-yilda Milliy til tadqiqot instituti (hozirgi Milliy til instituti) tomonidan ishlab chiqilgan va 1988-yilda kuchga kirgan “Hangil imlo qoidalari (한글 맞춤법)”, shuningdek keyingi “Xorijiy so‘zlarni yozish qoidalari (외래어 표기법)” uchun asos bo‘lib xizmat qildi. Bu kabi tilga oid me’yoriy qoidalar hukumat tomonidan rasmiy til normalari sifatida qo‘llanadi<sup>8</sup>. Endi esa “adabiy so‘zlar (standart so‘zlar. 표준 어휘)”ning bu davrdagi rivojlanishiga nazar tashlaylik. Odatda me’yoriy lug‘atlarga kiritilgan sarlavha so‘zlar adabiy so‘zlar sifatida qaraladi. Bunday lug‘atlarning tuzilishi va e’lon qilinishi har doim tilga oid me’yoriy hujjatlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Islohotlar davridan (개화기) boshlab G‘arb madaniyatining ta’siri ostida koreys tilini me’yorlashtirish ishlari boshlangan. 1912-yilda Bosh Ma’muriyat tomonidan “Oddiy maktablar uchun yozuv imlo qoidalari (보통학교용 언문철자법)” e’lon qilingan paytda, Chu Shigyeong boshchiligidagi Choson Gvangmunhe tilshunoslari “Malmoi (말모이)” nomli koreys tilining lug‘atini tuzishga kirishgan, biroq bu ish keyinchalik to‘xtatilgan. Birinchi nashr qilingan lug‘at esa 1920-yilda Choson Bosh Ma’muriyati tomonidan chop etilgan “Choson tili lug‘ati” hisoblanadi. Shuningdek, 1933-yilda “Hangil imlosini bir xillashtirish qoidalari” e’lon qilingach, 1938-yilda Mun Se-Yeong tomonidan yana bir “Choson tili lug‘ati” chop etilgan.

**3. Mustaqillikdan keyingi davr (1945-yildan keyin).** 1945-yilda Koreya mustaqillikka erishgach, koreys tilini rasmiy til sifatida tiklash va standartlashtirish ishlari davom ettirildi. Bu davr koreys adabiy tili imlo qoidalari bilan bog‘liq lug‘atlar tuzish davri bo‘ldi desak mubolag‘a qilmagan bo‘lamiz. Bu davrda yapon mustamlakasi davrida tuzilgan imlo qoidalariga ba’zi o‘zgartirishlar kiritilib, 1947-

<sup>7</sup> <https://contents.history.go.kr/mobile/yunho/main.do>

<sup>8</sup> 장린, 이강혁. 한국어 표준어에 대한 재고. 중한연구학회. 2024. 145-쪽.

yilda I Yun-Jae bu o‘zgartirishlarni inobatga olgan holda “Standart Choson tili lug‘ati (표준 조선말 사전)”ni nashr etgan. Undan so‘ng esa Choson Til Jamiyati (hozirgi Hangil jamiyati) tomonidan 26 yil davomida tuzilgan va 1957-yilda 6 jildda to‘liq nashr etilgan “Katta lug‘at (큰사전)” e‘lon qilingan. Shundan so‘ng, quyidagi muhim lug‘atlar chop etilgan:

- “Standart koreys tili lug‘ati (표준국어사전)” (1958) — Shin Gi-Chol va Shin Yong-Chol tomonidan
- “Yangi koreys tili lug‘ati (국어 새사전)” (1958) — Koreys tili va adabiyoti jamiyati tomonidan
- “Yangi lug‘at (새사전)” (1959) — Hong Ung-Son va Kim Min-Su tomonidan
- “Koreys tili katta lug‘ati (국어대사전)” (1961) — Li Hui-Seung tomonidan
- “Yangi ona tili katta lug‘ati (새 우리말 큰사전)” (1975) — Shin Gi-Chol va Shin Yong-Chol tomonidan. Bu texnik-me‘yoriy lug‘atlarning barchasi o‘z davrining me‘yoriy til qoidalari asosida shakllangan asarlar hisoblanadi<sup>9</sup>.

**4. Zamonaviy davr (1980-yillardan hozirgacha).** 1980-yillardan boshlab, texnologiya va ommaviy axborot vositalarining rivojlanishi bilan koreys tilining standartlashuvi yanada kuchaydi. 1984-yilda 국립국어연구소 (Milliy Koreys Tili Tadqiqot Instituti) tashkil etildi<sup>10</sup>. Ushbu institut tilning me‘yorlarini belgilash, lug‘atlar nashr etish va til siyosatini yuritish bilan shug‘ullanadi<sup>11</sup>. 1988-yilda “한글 맞춤법” (Hangil imlo qoidalari) va “표준어 규정” (Standart til qoidalari) rasmiy ravishda e‘lon qilindi<sup>12</sup>. Bu hujjatlar Seul shevasini asosiy me‘yor sifatida belgilab, tilning standartlashtirilishiga katta hissa qo‘shdi. Shuningdek, standart (adabiy) so‘zlarni tanlash prinsiplariga oid qoidalar 1988-yilda hukumat tomonidan e‘lon qilingan “Adabiy so‘zlarni tanlash prinsiplari (표준어 사정 원칙)” hujjatida

<sup>9</sup> 장린, 이강혁. 한국어 표준어에 대한 재고. 중한연구학회. 2024. 147-쪽.

<sup>10</sup> [https://en.m.wikipedia.org/wiki/National\\_Institute\\_of\\_Korean\\_Language](https://en.m.wikipedia.org/wiki/National_Institute_of_Korean_Language)

<sup>11</sup> [https://ko.wikipedia.org/wiki/표준어\\_규정](https://ko.wikipedia.org/wiki/표준어_규정)

<sup>12</sup> <https://ko.m.wikisource.org/wiki>

quyidagicha belgilangan: “Adabiy til (standart til) — zamonaviy Seul lahjasini madaniyatli kishilar keng qo‘llaydigan shaklda belgilashni asosiy prinsip sifatida oladi.” 1988-yildan beri bu qoidaga o‘zgartish kiritilmaganligi sababli, hozirgacha ushbu ta’rif “Adabiy so‘zlarni tanlash prinsiplari”ning umumiy qoidasi sifatida qo‘llaniladi Shuningdek, standart talaffuzga oid qoidalar haqida batafsil belgilangan hujjat ham 1988-yilda hukumat tomonidan e’lon qilingan “Standart talaffuz qoidalari (표준 발음법)” bo‘ladi

Bu davrda koreys tilini lotin yozuvida ifodalashga oid me’yoriy hujjat 2000-yilda e’lon qilingan “Koreys tilining lotin yozuvi qoidalari (국어의 로마자 표기법)” hisoblanadi. Bundan hozirgi kunda ham amalda qo‘llanilib kelmoqda.

Shu tariqa “Hangeul imlo qoidalari (한글 맞춤법)”, “Xorijiy so‘zlar imlosi (외래어 표기법)”, “Adabiy so‘zlarni tanlash prinsiplari (표준어 사정 원칙)”, “Standart talaffuz qoidalari (표준 발음 법)”, va “Koreys tilining lotincha yozuvi qoidalari (국어의 로마자 표기법)” kabi hujjatlar jamlanmasi “me’yoriy adabiy til (규범 표준어)”ni tashkil qiladi. Biroq bu har bir qoidaning o‘ziga xos kamchiliklari ham mavjud. 1988-yildan keyin ayrim bandlar doimiy ravishda yangilangan bo‘lsa-da, asosiy tarkib jihatidan 1988-yilda e’lon qilingan “Koreys tili yozuv me’yorlari (한국어 어문 규범)”dan unchalik farq qilmaydi. Shu sababli ba’zida real tilda qo‘llanilayotgan shakllar bilan me’yoriy shakllar o‘rtasida tafovut bo‘lishi yoki “madaniyatli insonlar” kabi zamonaviy jamiyatga mos tushmaydigan iboralarga tanqidiy qarashlar ham paydo bo‘lmoqda. Hozir amal qilayotgan qoidalar 2017-yil mart oyida “Madaniyat, sport va turizm vazirligi” tomonidan e’lon qilingan.

**Xulosa.** Shunday qilib, koreys adabiy tilining standartlashuv jarayonini 4 bosqichda ko‘rib chiqdik. Ilk davr deb bo‘linishiga sabab, koreys adabiy tili 훈민정음 bilan bevosita bog‘liqligidir. Yapon mustamlakasi davrida esa adabiy tilga qanday standartlashuv va tahdidlar bo‘lganini, mustaqillikka chiqqach qanday

siljishlar amalga oshirilganini va bu hozirgi vaqtda qanday kechayotganini bilish uchun shu davrlarga ajratib ko‘rib chiqishlikni maqsadga muvofiq deb bilaman.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. V.S. Xan, Koreya tarixi, Toshkent. 2013.
2. 장린, 이강혁. 한국어 표준어에 대한 재고. 중한연구학회. 2024.
3. 이익섭, 표준어의 기능. 2011
4. 이희승, 『국어대사전』(서울: 민중서림, 2011).
5. 안부영. (2022). 표준어와 방언 관련 교육내용 개선 방향 연구. 한국초등국어교육.